



«Universal Mobile Systems»
Mas'uliyati cheklangan jamiyati

Общество с ограниченной
ответственностью
«Universal Mobile Systems»

O'zbekiston, 100000
Toshkent shahri, Amir
Temur shoh ko'chasi, 24
Tel: (+99897) 403 83 35
Faks: (+99871) 235 81 60,
e-mail: info@mobi.uz
www.mobi.uz

“TASDIQLAYMAN”

“UNIVERSAL MOBILE SYSTEMS” MChJ

Bosh direktorning texnika va AT bo'yicha o'rinbosari



A.R. Abduraxmanov

2026-y. “37” 07

**“UMS” MChJ ehtiyojlari uchun TB ATD server xonalarining iqlim nazorati tizimi komponentlarini
xarid qilish bo'yicha**

TEXNIK TOPSHIRIQ

Toshkent – 2026

Mundarija

1	Umumiy ma'lumotlar	3
1.1	Tovar tavsifi.....	3
1.2	Tovarlarni xarid qilish maqsadi	3
1.3	Xarid amalga oshirilayotgan loyihani amalga oshirish uchun asos	3
1.4	Yangilik haqida ma'lumot	3
2	Tovarni sug'urtalash	3
3	Ishtirokchiga qo'yiladigan umumiy talablar	3
4	Tovarning taktik-texnik tavsiflari	3
5	Yetkazib berish talablari	4
6.	Komplektlash talablari.....	4
7.	Tovarga xizmat ko'rsatish va foydalanish talablari	4
8.	Tovarni ishlatish xarajatlariga qo'yiladigan talablar	4
9.	Tovarning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga muvofiqligi bo'yicha talablar	4
10.	Yetkazib berish miqdori, davriyligi, muddati va joyi bo'yicha talablar	5
11.	Shefmontajga talablar	5
12.	Xodimlarni o'qitishga qo'yiladigan talablar	5
13.	Hujjatlar bo'yicha talablar	5
15.	Tovarning qoldiq yaroqlilik muddatiga, saqlash muddatiga, sifat kafolatiga qo'yiladigan talablar	5
16.	Xavfsizlik talablari.....	6
17.	Qo'shimcha talablar.....	6
18.	Qabul qilingan qisqartmalar ro'yxati	6
19.	Ilovalar ro'yxati	6

1 Umumiy ma'lumotlar

1.1 To'var tavsifi

Xonalarning iqlim nazorati to'plami quyidagilardan iborat:

- harorat va namlikning universal intellektual datchigi
- "UMS" MChJ ehtiyojlari uchun birgalikda "To'var" deb ataladigan yoritish va haroratni boshqarishni o'z ichiga olgan intellektual boshqaruv paneli.

1.2 To'varlarni xarid qilish maqsadi

Zarur To'var 24/7 rejimida harorat, namlik va havo tozaligini aniq darajada saqlab turish uchun mo'ljallangan. Bu tizim qimmatbaho IT-jihozlarni qizib ketishdan hamda ishdan chiqishdan himoya qilish uchun ularni aniq so'vutishni, ventilyatsiyani va kecha-yu kunduz monitoringni ta'minlaydi.

1.3 Xarid amalga oshirilayotgan loyihani amalga oshirish uchun asos
Kompaniya omborida yo'qligi sababli ishlab chiqarish zarurati.

2026-yilga mo'ljallangan ATni rivojlantirish rejasi.

1.4 Yangilik haqida ma'lumot

Yetkazib beriladigan barcha To'var yangi, 2025-yildan kechiktirmay ishlab chiqarilgan, ishlab chiqarish nuqsonlaridan xoli (foydalanilmagan, tiklanmagan va tiklangan komponentlardan yig'ilimgan) bo'lishi, O'zbekiston Respublikasi hududida erkin tarqatilishi kerak.

2 To'varni sug'urtalash

Taqdim etilmaydi, biroq Yetkazib beruvchi to'varning Xaridorga hujjatlar bilan topshirilgunga qadar but saqlanishi uchun javobgar bo'ladi.

3 Ishtirokchiga qo'yiladigan umumiy talablar

Yetkazib beruvchi To'varga egalik qilish huquqiga ega ekanligini, To'varni tasarruf etishga vakolatli ekanligini, To'varni "UMS" MChJ mulkiga o'tkazish qonuniy ekanligini va yetkazib berilayotgan To'var uchinchi shaxslarning huquqlaridan, har qanday javobgarlikdan, majburiyatlardan xoli ekanligini kafolatlashi kerak. Yetkazib beruvchi nomuvofiq qadoqlash natijasida yuzaga kelgan To'varning har qanday shikastlanishi uchun to'liq javobgar bo'lishi kerak. To'var asl, Ishlab chiqaruvchidan bo'lishi kerak.

4 To'varning taktik-texnik tavsiflari

1-lot

Nomi: Shlyuzlarni boshqarish paneli (Sonoff NSPanel Pro), sensorli ekran va o'rnatilgan Zigbee xab bilan, soni - spetsifikatsiyada 1 dona:

Aloqa va protokollar:

- Zigbee 3.0: (IEEE 802.15.4) o'rnatilgan xab

- Wi-Fi: IEEE 802.11 b/g/n 2,4 GGs

TFT-ekran o'lchami: 3,95 dyuym (sig'imli ekran)

Ekran aniqligi: 480 x 480

Protssessor: 4 yadroli Cortex-A35

Grafik protssessor: Mali-G31GPU

Doimiy xotira: 8 GB eMMC

Sertifikatlar: CE/UKCA/SRRC/RoHS

2-lot

Nomi: Simsiz harorat va namlik datchigi, LCD displey bilan (Sonoff Zigbee SNZB-02DR2), soni - 20 dona, spetsifikatsiyasida:

Simsiz protokol: Zigbee 3.0 (IEEE 802.15.4)

O'lchash diapazoni

- harorat: -20 dan +60 °C gacha
- namlik: 5-95% RH (kondensatsiyalanmagan)

O'lchash aniqligi

- harorat: 0,1 °C
- namlik: displeyda 1% RH

Displeyda quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

- Joriy harorat va namlik
- Kunlik minimum va maksimumlar
- Batareya quvvati
- Ulanish holati

Quvvat turi: 1 × CR2450, 3 V (batareya to'plamda)

5 Yetkazib berish talablari

Tovarni yetkazib berish Yetkazib beruvchining transportida va uning hisobidan Xaridor joylashgan joyda amalga oshiriladi. Yetkazib beruvchi tovarni belgilangan joyga yetkazib berish bilan bog'liq barcha xavflarni o'z zimmasiga olishi kerak. Mulk huquqining o'tishi va tasodifiy nobud bo'lish (tasodifiy shikastlanish) xavfining Tovarga o'tishi tomonlar topshirish-qabul qilish dalolatnomasini imzolagan paytdan boshlab sodir bo'ladi.

Yetkazib berish shartlari: DDP Toshkent (Inkotermga muvofiq)

6. Komplektlash talablari

Qadoqlash Xalqaro standartlarga mos kelishi va saqlash hamda tashishni nazarda tutishi kerak. Yetkazib beriladigan barcha tovarlar saqlash, tashish va tegishli transport turida yetkazib berish paytida shikastlanmasligi, buzilmasligi, yuklar bilan muomala qilishning umume'tirof etilgan standartlariga rioya qilgan holda zavod o'ramida yetkazib berilishi kerak. Qadoq mustahkam, toza, quruq, butunligi buzilmagan bo'lishi kerak. Tovarining idishi, qadog'i va yorlig'i Tovar narxiga kiradi va qaytarilmaydi.

7. Tovarga xizmat ko'rsatish va foydalanish talablari

Taqdim etilmaydi.

8. Tovarni ishlatish xarajatlariga qo'yiladigan talablar

Taqdim etilmaydi.

9. Tovarining texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga muvofiqligi bo'yicha talablar

Tovar O'zbekiston Respublikasida Tovarining ushbu turi uchun amaldagi normativ-texnik hujjatlarga (DAST, TSh va h.k.) muvofiq bo'lishi kerak.

10. Yetkazib berish miqdori, davriyligi, muddati va joyi bo'yicha talablar

Yetkazib berish joyi: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, A.Temur shoh ko'chasi, 24, "UMS" MChJ. Qisman jo'natishga ruxsat berilmagan. Muddatidan oldin jo'natishga ruxsat beriladi. Yetkazib berish muddatlari: avans berilgan kundan boshlab 10 (o'n) ish kunidan oshmasligi kerak. Yetkazib beruvchi Xaridorning vakolatli vakili orqali tovarning yuklab jo'natishga tayyorligi to'g'risida amalda yuklab jo'natishdan 2 ish kuni oldin Xaridorni xabardor qiladi. Yuklash-tushirish - Yetkazib beruvchining kuchi va vositalari bilan, Tovar ishlab chiqaruvchisining talablariga rioya qilgan holda.

Tovar topshirilgunga qadar, Yetkazib beruvchi uskunaning butunligi va ishlash qobiliyati uchun javob beradi.

Ushbu yetkazib berish doirasida Tovarni qabul qilish-topshirish hisobvaraqa-faktura va tegishli Tovarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi asosida, ular amalda yetkazib berilgandan so'ng, Tovar yetkazib berilishiga qarab amalga oshiriladi.

Tovarni qabul qilish-topshirishda aniqlangan miqdor va sifat bo'yicha nomuvofiqliklar Tomonlarning vakillari tomonidan tovarni qabul qilish-topshirish paytida tuziladigan Nomuvofiqlik to'g'risidagi dalolatnomada ko'rsatiladi. Yetkazib beruvchi Dalolatnomada ko'rsatilgan barcha nomuvofiqliklarni o'z hisobidan bartaraf etishi yoki nomuvofiqlik to'g'risidagi dalolatnoma tuzilgan paytdan boshlab 15 (o'n besh) kalendar kun ichida nomuvofiq tovarni tegishli tovarga almashtirishi shart.

Nomuvofiqlik to'g'risida Dalolatnoma tuzilgan taqdirda, Yetkazib beruvchi barcha nomuvofiqliklarni bartaraf etgandan yoki Tovarni almashtirgandan va ikkala tomon Tovarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasini imzolagandan so'ng, Tovarni yetkazib berishning haqiqiy sanasi boshlanadi.

Yetkazib beruvchi yetkazib berilgan Tovarlariga bo'lgan e'tirozlarni bartaraf etgan yoki Tovarni almashtirgan taqdirda, Yetkazib beruvchi Tovarni qayta topshirishni amalga oshiradi.

Xaridor Tovarni qabul qilish-topshirish dalolatnomalarini Yetkazib beruvchidan olgan kundan boshlab 30 (o'ttiz) ish kunidan kechiktirmay imzolaydi va muhr bilan tasdiqlaydi yoki shu muddatda Yetkazib beruvchiga o'z tomonidan imzolangan (muhr bilan tasdiqlangan) Asosli rad etish/Nomuvofiqlik to'g'risidagi bildirishnomani yuboradi.

Tovar qabul qilingan kundan boshlab kafolat muddati davomida Xaridor tomonidan yashirin nomuvofiqlik holatlari aniqlangan taqdirda, Xaridor Yetkazib beruvchini nomuvofiqlik haqida xabardor qilish huquqiga ega. Bunday holda, Yetkazib beruvchi Nomuvofiqlik to'g'risidagi bildirishnomada ko'rsatilgan tartib va muddatlarda nomuvofiqliklarni bartaraf etish majburiyatini oladi.

Agar nomuvofiqlikni bartaraf etish imkoni bo'lmasa, Xaridor aniqlangan nomuvofiqlik fakti tufayli Xaridorning Tovardan ko'zda tutilgan maqsadlarda foydalanish qobiliyatiga ta'sir qilish ko'lamini va darajasini inobatga olgan holda, Tovarining nosoz/nomuvofiq qismi narxiga mos keladigan narxni pasaytirish huquqiga ega.

11. Shefmontajga talablar

Taqdim etilmaydi.

12. Xodimlarni o'qitishga qo'yiladigan talablar

Taqdim etilmaydi.

13. Hujjatlar bo'yicha talablar

Taqdim etilmaydi.

14. Kafolat va kafolatdan keyingi xizmat ko'rsatish bo'yicha talablar

Taqdim etilmaydi.

15. Tovarining qoldiq yaroqlilik muddatiga, saqlash muddatiga, sifat kafolatiga qo'yiladigan talablar
Yetkazib beruvchi yetkazib berilayotgan Tovarining sifati va ishonchliligini tovarga oid texnik shartlarga muvofiq kafolatlaydigan muddat (Kafolat muddati) Texnik-tijorat taklifi bilan belgilanadi va Xaridor tomonidan tovar yuk xati hamda Tovarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangan paytdan boshlab kamida 12 (o'n ikki) oyni tashkil etishi lozim. Kafolat muddati davomida Yetkazib beruvchi aniqlangan barcha nuqsonlarni

almashtirish orqali o'z hisobidan bartaraf etish majburiyatini oladi. Kafolat muddati yetkazib beruvchi bartaraf etish uchun javobgar bo'lgan nuqsonlar tufayli tovaridan foydalanish mumkin bo'lmagan butun vaqtga uzaytiriladi. Qabul qilish tovar yetkazib beruvchining ishtirokida amalga oshiriladi.

16. Xavfsizlik talablari

Tovarning xavfsizlik talablariga muvofiqligi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda va normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq tasdiqlanishi shart.

Yetkazib beriladigan Tovar undan foydalanish, saqlash va tashishning odatdagi sharoitlarida inson hayoti, sog'lig'i, atrof-muhit uchun xavfsiz bo'lishi, shuningdek, Buyurtmachining mol-mulkiga zarar yetkazmasligi kerak.

17. Qo'shimcha talablar

Tovarning narxi tovarning o'zini, kafolat, sertifikatlash, agar nazarda tutilgan bo'lsa, Kompaniya omborigacha yetkazib berish, barcha yuklash-tushirish ishlari narxini o'z ichiga olishi kerak.

Yetkazib beriladigan Tovar davlat standartlariga, sanitariya-epidemiologiya qoidalari va normativlariga, shuningdek Tovarning sifati va xavfsizligi masalalarini tartibga soluvchi boshqa hujjatlarga muvofiq bo'lishi kerak. Tegishli darajada sifatli bo'lmagan tovar yetkazib berilgan taqdirda, Yetkazib beruvchi e'tiroz olingan paytdan boshlab 3 kun ichida uni o'z hisobidan almashtirishi shart. Tegishli darajada sifatli bo'lmagan tovarni almashtirishdagi barcha xarajatlar (shu jumladan transport xarajatlari) Yetkazib beruvchiga yuklanadi.

18. Qabul qilingan qisqartmalar ro'yxati

Qisqartmalar ro'yxati taqdim etilmaydi.

19. Ilovalar ro'yxati

Ilovalar ro'yxati taqdim etilmaydi.

Tovar yetkazib berishdagi mas'uliyatlarni taqsimlash matritsasi

Amallar tavsifi	Yetkazib beruvchi	Buyurtmachi
Logistika		
Kelgusi yetkazib berish haqida ogohlantirish	+	
Shartnoma predmeti/spetsifikatsiyasiga muvofiq Tovarni Xaridor obyektiga yetkazib berish	+	
Qabul qilish-topshirish		
Tovarni assortiment va nomenklatura bo'yicha tekshirish	+	+
Tovarning yaroqliligi va ishga yaroqliligini tekshirish/sinash	+	+
Yetkazib berish bo'yicha birlamchi hujjatlarni rasmiylashtirish		+
Kafolat xizmati		
Kafolat xatini taqdim etish	+	

Ishlab chiqilgan:


Yetakchi mutaxassis



Ye.A. Yatskevich

Kelishilgan:

TB ATD AT bo'yicha direktor



U.A. Mavlyanov

TB ATD AT infratuzilmasidan
foydalanish bo'limi boshlig'i

N.F. Sadikov